



UDK:371

**Dilafroz SAIDVALIYEVA,**  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi*  
E-mail: saiddilafroz2@gmail.com

*TATU dotsenti, PhD M.Muxitdinova taqrizi asosida*

## CHET TILI O'QITISHDA TA'LIM AVTONOMIYASI KONSEPSIYASINING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Аннотация

Mazkur maqolada ta'lim avtonomiyasi konsepsiyasining shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Avtonomiya tushunchasining pedagogik mazmuni ochib berilgan, uning psixologik, sotsiologik va metodologik asoslari yoritilgan. Maqolada XX asr boshlarida yuzaga kelgan avtonomiya g'oyalari, klassik pedagoglar — J. Dewey, M. Montessori, L.S. Vygotskiy kabi olimlarning ta'limga oid qarashlari hamda ularning bugungi zamonaviy yondashuvlarga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, til o'rgatish va oliy ta'lim jarayonida ta'lim avtonomiyasining amaliy tatbiqi, uning milliy ta'lim tizimidagi o'rni va istiqbollari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim sifatini oshirish, talabalar mustaqilligini rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda avtonomiya g'oyalarining ahamiyatini asoslab beradi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim avtonomiyasi, mustaqil ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, o'z-o'zini boshqarish, til o'rgatish, pedagogik konsepsiyalar, ta'lim metodologiyasi.

## STAGES IN THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE CONCEPT OF LEARNER AUTONOMY IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Annotation

This article provides a theoretical and scientific analysis of the formation and historical development of the concept of learner autonomy. It explores the pedagogical essence of autonomy and highlights its psychological, sociological, and methodological foundations. The study examines the emergence of autonomy-related ideas in the early 20th century, focusing on the views of classical educators such as J. Dewey, M. Montessori, and L.S. Vygotsky, as well as their influence on contemporary educational approaches. In addition, the article discusses the practical implementation of learner autonomy in foreign language instruction and higher education, analyzing its role and prospects within the national education system. The findings substantiate the significance of autonomy in improving education quality, fostering learner independence, and preparing competitive professionals.

**Key words:** Learner autonomy, independent learning, learner-centered approach, self-regulation, language teaching, pedagogical concepts, educational methodology.

## ЭТАПЫ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КОНЦЕПЦИИ АВТОНОМИИ ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация

В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы формирование и этапы исторического развития концепции автономии обучения. Раскрыта педагогическая сущность понятия «автономия», освещены её психологические, социологические и методологические основы. В статье рассмотрены идеи автономии, возникшие в начале XX века, взгляды классических педагогов — Дж. Дьюи, М. Монтессори, Л.С. Выготского — а также их влияние на современные образовательные подходы. Кроме того, проанализировано практическое применение автономии обучения в преподавании иностранных языков и в системе высшего образования, её место и перспективы в национальной системе образования. Результаты исследования обосновывают значимость идей автономии для повышения качества образования, развития самостоятельности студентов и подготовки конкурентоспособных кадров.

**Ключевые слова:** Автономия обучения, самостоятельное обучение, личностно-ориентированный подход, саморегуляция, преподавание языков, педагогические концепции, методология образования.

**Kirish.** Bugungi kun zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsning faol ishtiroki, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji va mustaqil o'rganishga bo'lgan intilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat ta'limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida ta'lim avtonomiyasi tushunchasini ilgari suradi. Ta'lim avtonomiyasi – bu o'quvchining o'z ta'lim jarayonini mustaqil rejalashtirish, boshqarish va baholash qobiliyatini anglatadi. Ushbu tushuncha zamonaviy pedagogika, andragogika, hamda til o'rgatish metodikalarida markaziy o'rin egallab, talabning faol o'quv subyektiga aylanishini ta'minlaydi.

Ta'lim avtonomiyasi g'oyasi birdan paydo bo'lmagan, balki uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan. Uning

ildizlari klassik pedagogik fikrlarda, masalan, J. Dewey, M. Montessori, L.S. Vygotskiy kabi mutafakkirlarning g'oyalarida mavjud. Keyinchalik XX asrning ikkinchi yarmida bu tushuncha yangi mazmun kasb etib, til o'rgatish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar bilan chambarchas bog'landi.

Mazkur ishda ta'lim avtonomiyasi konsepsiyasining tarixiy shakllanish bosqichlari bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor g'oyaning shakllanishiga ta'sir etgan nazariy qarashlar, metodologik yondashuvlar va ularning ta'lim amaliyotiga tatbiq etilishiga qaratiladi. Shuningdek, o'zbek ta'lim tizimidagi yondashuvlar bilan global tendensiyalar o'rtasidagi uzviylik ham ko'rib chiqiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XX asrning birinchi yarmida J. Dewey tomonidan ilgari surilgan tajriba asosidagi o'qitish g'oyasi ta'lim avtonomiyasining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Dewey ta'limni faoliyat va tajriba bilan bog'lab, o'quvchining fikrlashini, muammolarni hal qilishda qatnashishini va qarorlar qabul qilishini ta'minlovchi yondashuvni taklif etdi.

Keyinchalik H. Holec tomonidan 1979 yilda ta'lim avtonomiyasi tushunchasi ilmiy atama sifatida mustahkamlandi. U avtonomiyani "o'z ta'limiga mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati" deb ta'riflagan va bu yondashuv ayniqsa chet tillarni o'qitishda keng tatbiq qilingan. Holec o'quvchining o'quv maqsadlarini belgilashi, material tanlashi, usullarni aniqlashi, o'z rivojlanishini baholay olishi kabi jihatlarni avtonom o'rganishning markaziy elementlari sifatida ko'rsatgan.

Avtonomiya tushunchasi ko'pincha "o'zini o'zi boshqarish", "o'zini o'zi tartibga solish" tushunchalari bilan bir qatorda qo'llanadi. Zamonaviy psixologik yondashuvlarda bu tushunchalar o'quvchining ichki motivatsiyasi, metakognitiv ko'nikmalari va refleksiv salohiyatiga tayanadi. Shuning uchun ta'lim avtonomiyasi nafaqat tashqi mustaqillik, balki ichki o'z-o'zini anglash jarayonidir.

XX asrning boshlarida pedagogik tafakkurda tub o'zgarishlar ro'y berdi. O'quvchining passiv bilim oluvchi emas, balki faol subyekt sifatida qaralishi ta'lim jarayonining markaziy masalasiga aylandi. Bu o'zgarishlar o'quvchining mustaqilligini, tanlov huquqini va o'z o'qish faoliyatini boshqarish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilgan yondashuvlarni ilgari surdi. Aynan shu davrda ta'lim avtonomiyasi g'oyasining ilk nazariy asoslari shakllandi.

Amerikalik faylasuf va pedagog John Dewey (1859–1952) ta'limni hayotiy faoliyat va tajriba bilan uzviy bog'liq deb hisoblagan. U o'quvchini ijtimoiy jarayonning faol ishtirokchisi sifatida ko'radi va "o'rganish faoliyat orqali amalga oshadi" degan prinsipni ilgari suradi. Dewey uchun mustaqil fikrlash, muammoga duch kelganda qaror qabul qilish, tanqidiy mulohaza yuritish – bularning barchasi o'quvchining avtonom o'quv subyektiga aylanishida muhim omillar edi. U shunday degan: "If we teach today's students as we taught yesterday's, we rob them of tomorrow" – bu g'oya ta'limning doimiy yangilanishini va o'quvchining shaxsiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi.

Italiyalik shifokor va pedagog Maria Montessori (1870–1952) o'z pedagogik tizimini bolaning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga asoslangan holda yaratdi. U avtonomiya g'oyasini bolaning o'z faoliyatini tanlashi va boshqarish qobiliyatini rivojlantirish orqali amalga oshirdi. Montessori tizimida o'quv muhit bolani mustaqil faoliyatga rag'batlantiruvchi vosita sifatida ko'riladi: erkin harakat, tanlov imkoniyati va o'z-o'zini baholash bolaning avtonomligini shakllantiruvchi muhim komponentlardir. Uning fikricha, "bola erkinlik muhiti orqali o'zini kashf qiladi va avtonom shaxsga aylanadi".

Rossiyalik mashhur psixolog Lev Vygotskiy (1896–1934) o'rganishning sotsiokultural tabiatiga e'tibor qaratdi. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik asosida o'quvchining asta-sekin mustaqil faoliyatga o'tishini nazarda tutadi. Vygotskiy fikricha, o'quvchi avval ijtimoiy muloqotda ishtirok etadi, keyinchalik esa o'z bilimini ichkilashtiradi, ya'ni avtonom ravishda faoliyat yuritishga o'tadi. Bu jarayon interpsixologik (ijtimoiy) darajadan intrapsixologik (shaxsiy) darajaga o'tish sifatida izohlanadi.

Ushbu mutafakkirlar qarashlarini umumlashtirgan holda, XX asr boshlaridagi avtonomiya g'oyasining quyidagi umumiy xususiyatlarini ajratish mumkin:

O'quvchini faol, ongli va tanlov qiluvchi subyekt sifatida ko'rish;

Erkinlik va tashabbusga asoslangan o'quv muhiti yaratish;

Shaxsning ichki motivatsiyasini rag'batlantirish;

O'qituvchining yo'naltiruvchi, emas balki hamkor sifatidagi roli;

Avtonomiyaga erishishning bosqichma-bosqich tabiatini tan olish.

Bu yondashuvlar keyinchalik XX asr ikkinchi yarmidagi avtonom ta'lim nazariyasiga mustahkam ilmiy poydevor bo'lib xizmat qilgan.

XX asrning o'rtalaridan boshlab ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar, o'quvchi faolligini oshirish, metakognitiv strategiyalar va individual o'rganish ehtiyojlariga urg'u berish avtonomiya konsepsiyasini yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi. Bu davrda pedagogika fanida ta'lim oluvchining faolligini qo'llab-quvvatlaydigan nazariyalari shakllandi, shuningdek, til o'rganish metodikasida mustaqil ta'lim g'oyasi ilmiy asos sifatida qarala boshlandi.

XX asr o'rtalarida ta'limda insonparvarlik (gumanistik) yondashuvi paydo bo'ldi. Bu yondashuvning asoschilaridan biri K. Rojers hisoblanadi. U o'quvchining ehtiyojlarini tushunish, o'z-o'zini anglash va rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish tarafdori edi. K. Rojers ta'lim jarayonida o'quvchi o'zining individual yo'lini tanlashi, o'z sur'atida rivojlanishi va o'z faoliyatiga mas'ul bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Uning "student-centered learning" yondashuvi keyinchalik avtonom o'rganishga zamin yaratgan muhim tamoyil bo'ldi.

Shuningdek, A. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi ham avtonomiya konsepsiyasi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Unga ko'ra, inson o'zini namoyon qilishga intiladi va bu intilish ta'lim jarayonida shaxsga erkinlik berish orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Avtonom o'rganish g'oyasini ilmiy pedagogik atama sifatida birinchi bo'lib fransuz olimi Henri Holec ilgari surdi. 1979 yilda Yevropa Kengashi topshirig'i bilan tayyorlangan "Autonomy and Foreign Language Learning" (Avtonomiya va chet tilini o'rganish) nomli hisobotida Holec ta'lim avtonomiyasini quyidagicha ta'riflagan:

"Avtonomiya – bu shaxsning o'z o'rganishiga nisbatan mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi".

Holecning konsepsiyasiga ko'ra, avtonomiyaga ega bo'lgan o'quvchi quyidagilarga qodir bo'lishi kerak:

O'quv ehtiyojlarini aniqlash;

O'quv maqsadlarini belgilash;

Mazmun va metodlarni tanlash;

O'qish jarayonini tashkil qilish;

O'z natijalarini baholash.

Ushbu tamoyillar, ayniqsa, chet tillarini o'qitishda keng qo'llanila boshlandi. Holec nazariyasi asosida o'quv markazlari, o'z-o'zini o'rgatish laboratoriyalari va avtonomiyaga yo'naltirilgan kurslar tashkil qilindi.

Milliy pedagogika vakillari ham avtonomiya masalasini turlicha talqin qilganlar. Jumladan, J. Jalolov, N. Mahmudov, Sh. Raxmatova, L. Ahmedova, M. Muxitdinova kabi olimlar o'z tadqiqotlarida o'quvchining o'z o'rganish faoliyatini boshqarish qobiliyati, tanlov erkinligi va o'zini o'zi baholash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida to'xtalganlar. Ularning fikricha, til o'rganish, axborot texnologiyalari yoki boshqa sohalarida o'quvchining faolligi va avtonomiyasi ta'lim sifati va natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'lim avtonomiyasi tushunchasi zamonaviy pedagogikaning asosiy nazariy tushunchalaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, uning rivojlanishida bir qator psixologik, falsafiy va metodik

yondashuvlar muhim rol o'ynagan. Bu tushuncha o'z mohiyatiga ko'ra, shaxsning mustaqil fikrlashi, o'z ta'lim faoliyatini rejalashtirish, tashkil qilish, nazorat qilish va baholash qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Avtonomiya, asosan, "mustaqillik", "o'z-o'zini boshqarish" va "mas'uliyatni o'z zimmasiga olish" kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

"Avtonomiya" so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, "autos" – "o'zi", "nomos" – "qonun" degan ma'nolarni anglatadi, ya'ni "o'zi uchun qonun belgilash", "o'zini boshqarish" degan ma'noni bildiradi. Pedagogik kontekstda esa bu atama o'quvchining yoki talabchaning o'z o'quv faoliyatini mustaqil tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Avtonom o'quvchi nafaqat bilimni o'zlashtiradi, balki qanday, qachon va nima uchun o'rganishini ham o'zi belgilaydi.

Ta'lim avtonomiyasining shakllanishiga ilk zamin yaratgan pedagogik g'oyalar XVIII-XIX asrlardagi klassik pedagogikada ko'zga tashlanadi. Masalan, J.-J. Russo ta'limda erkinlik va tabiiy o'sish tarafdori bo'lgan. U bolani shaxs sifatida qabul qilgan va uni mustaqil qaror qabul qilishga undagan. Pestalozzi va Fröbel esa bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishni tavsiya qilgan.

XX asr o'rtalarida kognitiv va metakognitiv yondashuvlar avtonom o'rganish uchun muhim bo'lgan "o'rganishni o'rganish" tushunchasini shakllantirdi. D. Flavel, N. Vaynert, O. Zimmerman kabi tadqiqotchilar o'quvchining o'z o'qish faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta'kidladilar. Bu jarayonlar bevosita ta'lim avtonomiyasining psixologik asosi hisoblanadi.

Metakognitiv yondashuvlar orqali o'quvchilar o'zlarining qanday o'rganishini tushuna boshladilar, bu esa ularning o'z ustida ishlashga, xatolarini aniqlashga va samarali o'rganish strategiyalarini tanlashga imkon yaratdi.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy ta'limning asosiy nazariy asoslaridan biri bo'lgan konstruktivizm bilimni tayyor holatda berish emas, balki o'quvchining uni faol faoliyat orqali o'zlashtirishi kerakligini ta'kidlaydi. Konstruktiv yondashuvga ko'ra, har bir shaxs bilimni o'z tajribasi, qadriyatlar va ehtiyojlari asosida "quradi". Bu jarayonda o'qituvchi faqatgina yo'naltiruvchi bo'lib, asosiy yuk o'quvchining zimmasiga tushadi.

Bu yondashuvda avtonomiya – o'quvchining o'z o'rganish strategiyalarini ishlab chiqish, tanlov qilish va o'z taraqqiyotini monitoring qilish qobiliyatidir. Konstruktivistik muhitda ishlatiladigan loyihaviy metodlar, muammoli ta'lim,

portfoliolar va reflektiv yozuvlar ularning barchasi avtonomiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa raqamli ta'lim vositalari, ta'lim avtonomiyasining yangi bosqichga chiqishiga sabab bo'ldi. Onlayn kurslar, podkastlar, videodarslar, sun'iy intellekt asosidagi o'quv platformalari o'quvchilarga istalgan joyda, istalgan vaqtda, o'z shaxsiy sur'atida o'rganish imkonini beradi. Bu esa o'quvchi uchun to'liq nazorat, rejalashtirish va baholash erkinligini yaratadi. Masalan, til o'rgatishda podkastlar va mobil ilovalar yordamida talaba o'zining ehtiyojlariga mos kontentni tanlaydi, mustaqil tinglaydi, topshiriqlar bajaradi va o'z taraqqiyotini monitoring qiladi. Bu jarayonning o'zagi – avtonom ta'lim hisoblanadi.

Bugungi kunda ko'plab xalqaro va milliy ta'lim strategiyalarida avtonomiya tushunchasi asosiy kompetensiyalardan biri sifatida ko'rilmogda. Masalan, Yevropa Ittifoqining CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) tizimida ta'lim oluvchining avtonomligi – uning yuksak til kompetensiyasiga erishishi uchun zarur shart sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid qaror va farmonlarida ham o'quvchining mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va kreativligi rivojiga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa milliy ta'lim tizimining ham avtonomiya tamoyillarini o'zlashtirishga intilayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida mustaqillikdan so'ng amalga oshirilgan islohotlar natijasida o'quvchi shaxsiga, uning mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bu jarayon xalqaro pedagogik tendensiyalar, zamonaviy ta'lim falsafasi hamda milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda kechdi. Ta'lim avtonomiyasi g'oyasi ham ushbu kontekstda

**Xulosa.** Ta'lim avtonomiyasi kontsepsiyasi zamonaviy pedagogika va ta'lim metodologiyasining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Uning shakllanishi uzoq tarixiy va nazariy jarayon bo'lib, dastlabki bosqichlarda o'quvchining shaxsiy faolligi, o'zini anglash, va mustaqil harakat qilish g'oyalari asosida shakllangan. Klassik pedagoglar — J. Dewey, M. Montessori, L.S. Vygotskiy kabi olimlarning ishlari ushbu g'oyaning falsafiy asoslarini yaratdi.

Bugungi kunda ta'lim avtonomiyasi — bu o'quvchining nafaqat bilim egallashi, balki bilimni izlash, tahlil qilish, baholash va uni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantiruvchi kompleks yondashuvdir. Bu tushuncha talabaning o'z o'quv jarayonini ongli va mas'uliyatli tarzda boshqarishini anglatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Dewey, J. (1916). *Democracy and Education*. New York: Macmillan.
2. Montessori, M. (1964). *The Montessori Method*. New York: Schocken Books.
3. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
4. Holec, H. (1981). *Autonomy and Foreign Language Learning*. Oxford: Pergamon.
5. Little, D. (1991). *Learner Autonomy: Definitions, Issues and Problems*. Dublin: Authentik.
6. Benson, P. (2001). *Teaching and Researching Autonomy in Language Learning*. Harlow: Pearson Education.
7. Ж. Жалолов (2012). Чет тил ўқитиш методикаси. Тошкент: Ўқитувчи.
8. Назарова, З. (2020). "Олий таълимда мустақил таълим фаолиятини ташкил этишда педагогик технологиялар". *Ta'lim va rivojlanish tahlili*, №4, 45-50.
9. Ахмедова, Л. (2021). "Талабалар таълим автономиясини ривожлантиришда мультимедиа воситаларининг ўрни". *Педагогик маҳорат журнали*, №1, 33–37.
10. Ibragimova, Sh. and Saidvalieva D, "Communication And Information Technology Is A Way Of Changing Education," 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2019, pp. 1-4, doi: 10.1109/ICISCT47635.2019.9011838.
11. Saidvalieva, D. (2019). On the Meaning of English in the Education of Future Teachers. *Bulletin of Science and Practice*, 5(4), 452-456. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/41/66..>
12. Saidvalieva, D. (2023). Choosing an Effective Podcasting Service for Learning English Language. *Bulletin of Science and Practice*, 9(5), 588-591. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/90/79>